

22-dars. GRAFIK MUHARRIRLARIDA MATN BILAN ISHLASH



Paint.Net dasturida yangi tasvirlar yaratish imkoniyatlarining katta bo'lishi bilan bir qatorda, ijodiy yondashuv bilan unda tayyor rasmlarni qayta ishlash ham mumkin.

Bunday jarayonlarga yuklangan rasmlarga matn kiritish, rasmlarni bir necha usulda qirqib olish va ular ustida turli amallarni bajarish, qatlamlar bilan ishlash va ularning yangi ko'rinishlarini hosil qilish va hokazolar kiradi.


Matn yozish vositalari

1. Matn kiritish
uskunasi

2. Matnni formatlash
paneli


3. Ranglar paneli

4. Matn hosil qilish




1-mashq. Kitob jildini yaratish.

- Paint.Net dasturini ishga tushiring;
- **Файл** bo'limini oching va **Открыть** buyrug'ini tanlang;
- hosil bo'lgan **Обзор** oynachasidan biror rasm faylini tanlang va **Открыть** amalini bajaring;
- rasm o'lchamini 500×500 qilib belgilang va **OK** tugmachasini tanlang;
- uskunalar panelidan **T** piktogrammasini tanlang;
- kursorni rasm ustiga olib borib, sichqonchani chap tugmachasini bosib turgan holda shtrixlangan ramkani quyi chap tomonga siljiting va tugmachani qo'yib yuboring. Shriftning turi, o'lchami va rangi tanlangandan keyin **"Kompyuter grafikasi"** so'zini kiriting.



2-mashq. Paint.Net dasturida matn kiritish uskunasi tanlab, ishchi sohada "Informatika" so'zini yozamiz. **Menyu** panelidagi **Эффекты** bo'limini ochamiz va stillar orasidan **Вмятины** usulini tanlaymiz. Bu so'zni yana 3–4 marta sahifaga joylashtirib, ularga boshqa stillarni qo'llaymiz.

Компьютер графика
KOMPYUTER GRAFIKASI



SAVOL VA TOPSHIRIQLAR



1. Paint.Net dasturida rasmni yuklash uchun qanday amallar ketma-ketligi bajariladi?
2. Ochilgan rasm o'lchamlarini qanday o'zgartirish mumkin?
3. Rasmni vertikal yoki gorizontal holatga qanday keltirish mumkin?
4. Ochilgan rasmlar ustida yana qanday amallarni bajarish mumkin?
5. Matn kiritish uskunasi yordamida kalendar yaratib ko'ring va saqlab qo'ying.

UYGA VAZIFA



1. Matn kiritish uskunasi yordamida tabriknoma yarating.
2. Paint.Net dasturida tasavvuringizdagi kelajak kompyuterlari rasmini chizing va uni nomlang.